

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAPAROV BOBIR XUDAYBERDIYEVICH

**YOSHLARNI SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA
VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MAFKURAVIY
TARG‘IBOT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

09.00.05 — Milliy g‘oya va targ‘ibot texnologiyalari

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent — 2025

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on Philosophical Sciences

Saparov Bobir Xudayberdievich

Yoshlarni sogʻlom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mafkuraviy targʻibot texnologiyalarining ahamiyati..... 3

Сапаров Бобир Худайбердиевич

Значение технологии идеологической пропаганды в воспитании молодёжи в духе здорового образа жизни и патриотизма 20

Saparov Bobir Khudaiberdievich

The importance of Ideological propaganda technologies in the Education of Youth people in the Spirit of a healthy lifestyle and Patriotism 38

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAPAROV BOBIR XUDAYBERDIYEVICH

**YOSHLARNI SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA
VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MAFKURAVIY
TARG‘IBOT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

09.00.05 — Milliy g‘oya va targ‘ibot texnologiyalari

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent — 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fal1009 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ik-falsafa.nuu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Maxkamov Ulugbek Abdugapporovich**
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.30.12.2019.F.01.14 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “25” dekabr soat 14-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 4-qavat, 416-xona.Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma’muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 236-46-55; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____ da tarqatildi.
(2025 yil “___” _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi.)

N.A.Shermuxamedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

M.T.Xidirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J. Mavlonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda fuqarolarning sogʻlom turmush tarzini tizimli tashkil etish, ular ongida vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlar yaratilmoqda. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti barcha mamlakatlarda aholining turli yuqumli kasalliklarga qarshi emlash ishlarini tashkil etmoqda, fuqarolar ongida vatanparvarlik ruhini tarbiyalashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish davlat siyosati darajasiga koʻtarilmoqda. Ammo, baʼzi hollarda odamlarning oʻz sogʻligiga nisbatan loqaydligi, boqimandalik kayfiyati va baʼzi yoshlarning oʻz vatanida amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan agressiv kayfiyati ham kuzatilmoqda. Shu bois, hozirgi davrda yoshlarni sogʻlom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning takomillashgan targʻibot texnologiyalarini ishlab chiqish mafkuraviy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida sogʻlom turmush tarziga rioya qilishning ahamiyati, uning uzoq umr koʻrish kafolati sifatidagi oʻrni, keksalik yoshiga yetgan odamlarning ijtimoiy faolligini saqlashda salomatlik gigiyena qoidalarini bilish, shuningdek, har qanday yoshdagi fuqarolarning qalbida vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishning ijtimoiy taraqqiyotning mexanizmi sifatidagi rolini asoslash boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sogʻlom turmush tarzi mamlakatda yashayotgan fuqarolarning oʻz vataniga sadoqat va daxldorlik tuygʻusini shakllantirish omili ekanligiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Biroq, baʼzi hollarda bu sogʻlom turmush tarzining inson qalbida xotirjamlik, ertangi kunga ishonch ruhini shakllantirish omili sifatidagi roli ikkinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda, shuningdek vatanparvarlik ruhidagi tarbiya oʻrnini turli darajadagi kompyuter oʻyinlari egallamoqda. Shu bois, hozirgi davrda sogʻlom turmush tarziga rioya qilish va vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishning yangi targʻibot texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekistonda fuqarolarning va ayniqsa yoshlarning sogʻlom turmush tarziga rioya qilishda fikr, tana va ruh sogʻligini taʼminlash, odamlar ongida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mohiyatini tushunish va daxldorlik tuygʻusini shakllantirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Xalqning sogʻlom turmush tarziga rioya qilish uchun turli darajadagi sport oʻyinlari, vatanparvarlik ruhidagi festivallar tashkil etilmoqda. Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasida “Sogʻlom hayot,” “Salomatlik sirlari”, “Vatanparvar” kabi koʻrsatuvlar, vatanparvarlikni targʻib etuvchi festivallar tashkil etilmoqda. Barcha viloyatlar va tumanlarda fuqarolar tibbiy koʻrikdan oʻtkazilmoqda va zarur boʻlgan hollarda ularga oʻz vaqtida reproduktiv yordam koʻrsatilmoqda. Shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid turli tanlovlar tashkil etilmoqda. Jaloliddin Manguberdi, Avloniy kabi koʻp seriyali filmlar yaratilib, yoshlar ongiga vatanparvarlikning mohiyati singdirilmoqda. Biroq, baʼzi hollarda odamlarning oʻz sogʻligiga nisbatan befarqligi yurak kasalliklarining yosharishiga, baʼzi hollarda esa, bir guruh yoshlarning oʻz kelajagiga nisbatan befarqligi tufayli ularning Vatanga xiyonat qilishiga taʼsir qilmoqda. Shu bois, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi

sifatida yoshlarni sogʻlom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning takomillashgan targʻibot texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim toʻgʻrisida”gi OʻRQ-637-son Qonunida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6099-son, 2021-yil 3-iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-6260-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmonlarida, 2018-yil 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng oʻrganish va targʻib qilish maqsadida yoshlar oʻrtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PQ-3721-son, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4307-son qarorlarida, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi “Aholining sogʻlom turmush tarzini qoʻllab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 735-son, 2022-yil 3-oktyabrdagi “Umumiy oʻrta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 558-son qarorlarida hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sogʻlom turmush tarziga rioya qilishning kundalik hayot meʼyori sifatida amal qilishni targʻib qilish barcha davrlar mutafakkirlarining diqqat markazida boʻlgan. Sharqda “Shiroq” va “Toʻmaris” dostonlari¹, Gʻarbda “Odisseya”², “Troya”³, Hindistonda “Maxobhorat”⁴ dostonlari, Platonning “Protogor”⁵ dialogida, Aristotelning “Nikomaxovo etika”⁶ asarlarida sogʻlom turmush tarzining ahamiyati, mamlakatda yashayotgan fuqarolarning oʻz vataniga sadoqat va daxldorlik tuygʻusini shakllantirish gʻoyalari ilgari surilgan. Yoshlarni sogʻlom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqidagi gʻoyalari Sharq

¹ Mallayev N.M. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. Qadimgi davrlardan XVII asrgacha. Qayta ishlangan uchinchi nashri. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1976. – 664-b.

² Gomer. Odisseya. – Moskva, Leningrad: Izdatelstvo Academia, 1935. – s. 551.

³ Petrov S.I. Troya. Avtor, 2022. – S.30.

⁴ Maxabxarata. Vipusk V, Kniga 12. – Moskva, – S. 174-335. Pervod, predisloviye, primechaniya i tolkoviy slovar akademika AN TSSR b. L. Smirnova.

⁵ Platon. Dialogi // Pratorgor. – Moskva: Nauka, 1972. – s. 216.

⁶ Aristotel. Nikomaxovo etika. – Moskva: Nauka, 1972. – s. 456.

faylasuflari Al-Xorazmiy⁷, Abu Rayhon Beruniy⁸, Abu Nasr Forobiy⁹, Abu Ali ibn Sino¹⁰, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus¹¹, Koshifiy, G'arb olimlari F. Bekon¹², Dekart¹³, Spinoza¹⁴ va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Jadid ma'rifatparvarlari Behbudiy¹⁵, Cho'lpon¹⁶, Fitrat¹⁷, Avloniy¹⁸ yoshlar ongiga sog'lom turmush tarzi va vatanparvarlik g'oyalarini singdirishga alohida e'tibor qaratganlar.

XX asrda Yevropa olimlari E. Charlton¹⁹, R. Dishman²⁰, J. Fisher²¹, A. Maslou²², J. Miller²³ning asarlarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va vatanparvarlik tuyg'usi jamiyat a'zolarining tafakkur uslubi va turmush tarzida namoyon bo'lishi asoslangan.

MDH mamlakatlari olimlari I. Brexman²⁴, E. Vayner²⁵, I. Drogov²⁶, A. Burgeev²⁷, B. Ruchkin²⁸, V.A. Borishev²⁹, V.N. Chumakov³⁰ ta'lim-tarbiya jarayonining muhim elementlaridan biri sifatida yoshlarning vatanparvarlik ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatidagi ahamiyatini asoslaganlar.

⁷ Al-Xorezmi Muxammad. Matematicheskiye traktati. – Tashkent: Fan, 1983. – s. 306.

⁸ Abu Reyxan Beruni, Izbrannyye proizvedeniya. t. 4. Perevod s arabского U. Karimova. – Tashkent: 1973. – S.312.

⁹ Abu Nasr Forobiyning Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.

¹⁰ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. – Sharq nashriyoti, 2020. – 376-b.

¹¹ Qobusnoma/Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: Subutoy Dolimov, Ulug'bek Dolimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 224 b.

¹² Bekon F. Noviy organon. – M.: 1995. – s. 382.

¹³ Dekart R. Rassujdeniya o metode, chtoby verno napravlyat svoj razum i otyskivat istinu v naukax // Sochineniya v 2-x tomax. T. 1. – M.: Mysl, 1989. – s. 654.

¹⁴ Spinoza B. Izbrannyye proizvedeniya. – M.: 1957. – s. 1356.

¹⁵ Behbudiy. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Akademnashr, 2021. –312 b.

¹⁶ Abdulhamid Cho'lpon. "Kecha va kunduz" / roman / "Abadiy barhayot asarlar" turkumi. Nashrga tayyorlovchilar To'lqin Eshbek, Baxtiyor Haydar. – Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat", 2019. –288 b.

¹⁷ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 238-b.

¹⁸ Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi. 1992. – 28-b.

¹⁹ Charlton E. Osnovnie prinsipi obucheniya zdorovomu obrazu jizni // Voprosi psixologii, 1997. – № 2. – S. 3-14.

²⁰ Dishman R.K. Health psychology and exercise adherence // Quest. 1981. – V.33. – P. 166-180.

²¹ Kau M.L., Fischer J. Self-modification of exercise behavior // Journal of Behavior Therapy and Experimental Psychiatry, 1974. - V.5. – P. 213-214.

²² Maslov A.H. Motivation and personality. – N.Y., 1994. – P.128.

²³ Miller J.W. A general theory of constitutional patriotism /Miller J.W.// International Journal of Constitutional Law. – 2007. – P.72-95.

²⁴ Brexman I.I. Vvedeniye v valeologiyu nauku o zdorovye. – L.: Nauka, 1987. – s. 125.

²⁵ Vayner E.N. Sotsialnyye aspekty zdorovya i zdorovogo obraza jizni // Valeologiya, 1998. – №3. – S.17-23.

²⁶ Drogov I.A. Problemy organizatsii ozdorovleniya detey i podrostkov sredstvami aktivnogo otдыхa i turizma / I.A. Drogov, D.V. Smirnov. // Teoriya i praktika fizicheskoy kultury. – 2002. – № 11. – S.56-59.

²⁷ Bugreev A.N. Rossiyskiy patriotizm kak faktor sovershenstvovaniya fizkulturnogo obrazovaniya: novatsii i traditsii / A.N. Bugreev, O.A. Nayda//Nauchnyye i metodicheskiye problemy razvitiya fizkulturnogo obrazovaniya: materialy Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. – Volgograd: Volgogradskaya gosudarsvennaya akademiya fizicheskoy kulturi, 2003. – S.133 – 135.

²⁸ Ruchkin B.A. Rossiyskoye obshchestvo: patriotizm XXI veka // Znaniye. Ponimaniye. Umeniye. - 2015. – №1. – s. 52-70.

²⁹ Borishev V.A. Upravleniye protsessom formirovaniya sistemy sennstey Rossiyskogo mejetnicheskogo obshchestva i ideologii reform. Avtoref.dissert.kad filos. nauk. – M.: 2015.

³⁰ Chumakov B.N. Valeologiya: Ucheb. Posobiye . – 2-ye izd. ispr. i dop. – M.: Pedagogicheskoye obshchestvo Rossii, 2000. – S.407.

O‘zbekistonda faylasuf olimlar E. Yusupov,³¹ M. Xolmatova,³² T. Qurbonov³³, A. Ochildiyeu,³⁴ N. Shermuxamedova,³⁵ G. Tillayeva,³⁶ S. Karimov,³⁷ S. Mavlonova,³⁸ N. Xakimov,³⁹ G. Tulenova,⁴⁰ B. Ochilova,⁴¹ J. Yaxshilikov,⁴² siyosatshunos olimlar Sh. Paxrudinov,⁴³ S. Otamurodov,⁴⁴ A. Darmonov,⁴⁵ I. Suvanov⁴⁶, N. O‘rinboyev⁴⁷ asarlarida yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mafkuraviy targ‘ibot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek R. Kurbanniyazova,⁴⁸ J. Boysunov,⁴⁹ K. Usmanov,⁵⁰ A. Mirzayev,⁵¹ S. Ro‘zimurodov,⁵² S. Usmonov,⁵³ A. Shoxakimov,⁵⁴

³¹ Yusupov E. Ma‘naviy kamolot omillari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – B.63.

³² Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 216-b.

³³ Qurbonov T.H, Yoshlarda milliy g‘ururning shakllanishida madaniy merosning o‘rni. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy Universiteti. – Toshkent, 2005.

³⁴ Ochildiyeu A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004. – 43 b.

³⁵ Shermuxamedova N. Osobennosti natsionalniy mentaliteta // Vestnik FarGU, 2000. – S.34-37.

³⁶ Tillayeva G. Oila va inson kamoloti. – Toshkent: O‘zR FA falsafa va huquq instituti, 2011. – 255-b.

³⁷ Karimov S. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2016. – 81-b.

³⁸ Mavlonova S. “Yoshlarni ma‘naviy-ma‘rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlarining ilmiy-siyosiy qarashlari misolida)”. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 45-b.

³⁹ Xakimov N.X. Rol izucheniya strategii deystviy v vıybore professionalnogo napravleniya (s uchyotom formirovaniya predprinimatelskix kachest) u studencheskoy molodyoji // Namangan davlat universiteti xabarları, 2019. – № 6. – 292-299-b.

⁴⁰ Tulenova G.J. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ma‘naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals. fanl. dokt. diss. – Toshkent, 2006. – 256-b.

⁴¹ Ochilova B. Shaxs ma‘naviy kamolotida ixlosmandlik va ibrat birligi: nauchno-populyarnaya literatura / Baxti Ochilova ; O‘zR FA I.M.Mo‘minov nom.falsafa va huquq in-ti. – Tashkent: O‘zbekiston, 2004. – 145-b.

⁴² Yaxshilikov J.Ya. Milliy g‘oya - taraqqiyot strategiyasi / J.Ya.Yaxshilikov, I.T. Muxammadiyev. –Toshkent: “Fan”, 2017. – 424-b.

⁴³ Paxrudinov Sh.I. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademiya, 2006. – 256-b.

⁴⁴ Otamurodov S. Globallashuv va millatni asrash muammolari. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2018. – 256-b.

⁴⁵ Darmonov A.A. O‘zbekiston yoshlarida tahdidbardoshlik tuyg‘usini shakllantirish tamoyillari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon: 2022. – 45-b.

⁴⁶ Suvanov I.A. Shaxs ma‘naviyatini yuksaltirishda milliy g‘oya va o‘zlikni anglash dialektikasi, falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti. – Toshkent, 2018.

⁴⁷ O‘rinboyev N.O‘. Barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda sog‘lom turmush tarzining o‘rni. Fals. fan. nomzodi diss. avtoreferati. – Toshkent: Universitet, 2005. – 23-b.

⁴⁸ Kurbanniyazova R.K. Davr ruhi o‘zgarishlarining ijtimoiy mentalitetga ta‘siri. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 45-b.

⁴⁹ Boysunov J.X. O‘zbekistonda yoshlar ma‘naviy madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – 52-b.

⁵⁰ Usmanov K.X. O‘zbek xalqi ma‘naviy-axloqiy merosida harbiy-vatanparvarlik g‘oyalarining talqini. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 42-b.

⁵¹ Mirzaev A.R., Kurbanniyazova R.K. Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish jarayonida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning inklyuziv texnologiyalari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 45-b.

⁵² Ro‘zimurodov S. “Oilada sog‘lom va obod turmush tarzini shakllantirishning falsafiy-estetik muammolari”. Falsafa falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020. – 45-b.

⁵³ Usmonov S.S. Milliy mafkuraning jamiyatda ijtimoiy-madaniy barqarorlikni ta‘minlashga ta‘siri . Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 45-b.

⁵⁴ Shoxakimov A.R. Harbiy xizmatchilarda milliy ruhni yuksaltirish omillari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 45-b.

I. Butoyev⁵⁵ va J. Mamonovlar⁵⁶ o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoshlar ongiga vatanparvarlik g‘oyalari singdirish usullarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqanlar.

Turli davrlarda yashab ijod etgan olimlar yoshlar sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va vatanparvarlik mavzusida tadqiqotlar olib borgan bo‘lsa-da, yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mafkuraviy targ‘ibot texnologiyalarining ahamiyati yetarli asoslanmaganligi bois, ushbu dissertatsiyada O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish targ‘ibot texnologiyalarini takomillashtirish hamda uning sog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liq mafkuraviy jihatlarini asoslashga harakat qilingan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining “Harakatlar strategiyasini bajarish davrida mamlakatimizda ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangilanayotgan O‘zbekistonda avlodlararo vorisiylikga amal qilish va ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida o‘zaro hamkorlikni ta‘minlashning yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mafkuraviy texnologiyasi sifatidagi rolini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy tarixiy jarayonlar ta‘sirida shakllangan sog‘lom turmush tarzi va vatanparvarlikka oid g‘oyalarning mohiyatini ochib berish va ulardan mafkuraviy targ‘ibot texnologiyasi sifatida foydalanishning ahamiyatini asoslash;

davlat va nodavlat tashkilotlarida yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid targ‘ibot texnologiyalarini takomillashtirishning ijtimoiy taraqqiyot omili sifatidagi rolini asoslash;

badiiy asarlarda milliy qahramon obrazlarini yaratish va erishgan yutuqlarni ommalashtirish yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning mafkuraviy targ‘ibot texnologiyasi sifatidagi ahamiyatini ochib berish;

mafkuraviy targ‘ibot texnologiyalarining yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini oshirishning takomillashtirilgan mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasiga oid ijtimoiy-madaniy jarayonlar olingan.

Tadqiqotning predmetini yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid mafkuraviy targ‘ibot texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada umumiy o‘zaro aloqadorlik, vorisiylik va tarixiylik tamoyillari, tahlil, mavhumlikdan konkretlikka o‘tish, umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

⁵⁵ Butoyev I. Yangilanayotgan O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzi rivojlanishida diniy va dunyoviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish masalalari (Ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2023.

⁵⁶ Mamonov J.A. Yoshlar ma‘naviy madaniyatini shakllantirishda milliy mentalitetning o‘rni. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2023. – 46-b.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalq ogʻzaki ijodi namunalaridagi qahramon obrazlarining vatanparvarligi zamonaviy yoshlar uchun yurt tinchligi, xalq farovonligi yoʻlida fidokorona mehnat qilishning ibrat maktabi ekanligi va ulardan davr ruhiga mos ravishda foydalanish tarixiy-mafkuraviy texnologiya sifatida namoyon boʻlishi asoslangan;

maktab, oila va mahallada sogʻlom turmush tarziga oid amaliy faoliyatni tizimli tashkil etish, bu jarayonlarda ota-onalarning muntazam ishtirokini taʼminlashga erishish yoshlar ongida bu faoliyatni tizimli tashkil etish “sogʻlom tanada sogʻlom ruhni shakllantirish”ning oqilona texnologiyasi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan;

taʼlim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning vatanparvarlik targʻibotiga oid tanlovlar va ijtimoiy loyihalarda ishtirokini taʼminlash, xorij davlatlar yoshlarining vatanparvarlik ruhidagi faoliyatini qiyosiy tahlil etish yoshlarning oʻz vatanida erishilgan yutuqlar bilan gʻururlanish, uning ravnaqiga munosib hissa qoʻshish tuygʻusini shakllantirishning mafkuraviy targʻibot texnologiyasi sifatida amal qilishi ochib berilgan;

yoshlarni sogʻlom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni “Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning huquqiy-demokratik davlat qurishga qaratilgan gʻoyaviy-mafkuraviy asoslariga tayangan holda rivojlanishi va bu jarayonni takomillashtirishga yoʻnalgan targʻibot texnologiyalarini ishlab chiqish davrning ruhiga mos yoshlar qatlamini tarbiyalash uchun zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yoshlarni sogʻlom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda davlat va nodavlat jamoat tashkilotlari faoliyatining uzluksizligini taʼminlashning ular ongida umr va Vatan qadrini bilish, boʻsh vaqtdan unumli foydalanishga oqilona yondashuvni shakllantirish va fidokorona mehnat qilishning zarurligini tushunish mexanizmi sifatida amal qilishi ochib berilgan;

yoshlarni sogʻlom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga “Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq” tamoyili nuqtai nazaridan yondashuvni shakllantirishning mafkuraviy va ijtimoiy ahamiyati asoslangan;

Oʻzbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlarni sogʻlom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro konferensiyalar materiallari, ilmiy toʻplamlari, OAK roʻyxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilgani, dissertatsiyada ilgari surilgan xulosalarning tegishli tashkilotlarda amaliyotga joriy etilgani haqidagi dalolatnomalarning borligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, unda ilgari surilgan gʻoyalar va takliflardan Yangi Oʻzbekiston yoshlari ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, sogʻlom turmush tarziga rioya qilishning ahamiyati, vatanparvarlik va vatanfurushlikning farqlarini tushunish, Vatan uchun jon fido qilishga tayyor yoshlarning avlodini tarbiyalashga

oid ilmiy tadqiqot ishlari, monografiyalar va maqolalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan g'oyalar, yoshlarni sog'lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid xulosalardan "Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar", "Ijtimoiy falsafa", "Siyosatshunoslik", "Fuqarolik jamiyati" kabi fanlardan tegishli mavzular bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoshlarni sog'lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mafkuraviy targ'ibot texnologiyalarining ahamiyatiga oid ilmiy tadqiqotning natijalari quyidagi tashkilotlarda amaliyotga joriy qilingan:

xalq og'zaki ijodi namunalaridagi qahramon obrazlari vatanparvarligining zamonaviy yoshlar uchun ibrat maktabi sifatidagi ahamiyati va ulardan davr ruhiga mos ravishda foydalanishning mafkuraviy texnologiyasi sifatidagi rolga oid xulosalar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatining turli yoshdagi fuqarolarning ongida Vatan tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni, sport musobaqalarini tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 7-maydagi 10/258-son ma'lumotnomasi). Natijalar yoshlarning ongida milliy xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qish, ulardagi g'oyalarni ommalashtirish va ulardan ibrat olib faoliyatini tizimli tashkil etishga xizmat qilgan.

maktab, oila va mahallada sog'lom turmush tarziga oid amaliy faoliyatni tizimli tashkil etish, bu jarayonlarda ota-onalarning muntazam ishtirokini ta'minlashga erishish, yoshlar ongida bu faoliyatni tizimli tashkil etish "sog'lom tanada sog'lom ruhni shakllantirish"ning oqilona texnologiyasi sifatidagi ahamiyatini ochib berishga oid xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining yoshlar ongida vatanparvarlik va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga oid ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 7-maydagi 05-09-63-son dalolatnomasi). Natijalar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi ko'rsatuvlarini mazmunan boyitish va ularning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qilgan;

ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning vatanparvarlik targ'ibotiga oid tanlovlar va ijtimoiy loyihalarda ishtirokini ta'minlash, xorijiy davlatlar yoshlarining vatanparvarlik ruhidagi faoliyatini qiyosiy tahlil etish, yoshlarning o'z vatanida erishilgan yutuqlar bilan g'ururlanish, uning ravnaqiga munosib hissa qo'shish tuyg'usini shakllantirishning mafkuraviy targ'ibot texnologiyasi sifatida amal qilishiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi ta'lim muassasalari harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarini faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Gvardiyasining 2025-yil 30-apreldagi 4030/V-son dalolatnomasi). Natijalar O'zbekiston Milliy Gvardiyasi ta'lim muassasalari barcha

harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari tinglovchilarining jangovar vazifani og'ishmay bajarishiga, mafkuraviy immunitetni oshirishga xizmat qilgan;

yoshlarni sog'lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning huquqiy-demokratik davlat qurishga qaratilgan g'oyaviy-mafkuraviy asoslariga tayangan holda rivojlanishi va bu jarayonni takomillashtirishga yo'naltirilgan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish davrning ruhiga mos yoshlar qatlamini tarbiyalash uchun zarurligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimi ta'lim muassasalarining kursantlarning jismoniy va ma'naviy chiniqtirishga oid o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 2-maydagi 10/961-raqamli dalolatnomasi). Natijalar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi ta'lim muassasalari kursantlari ongidagi vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularning sog'lom turmush tarzi qoidalariga rioya qilishiga oid ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingan va aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (7 ta respublika va 3 ta xorijiy), 7 ta respublika va xalqaro konferensiya to'plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, 7 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 136 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

"Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlarning soni va dissertatsiyaning hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Yoshlarni sog'lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning tarixiy-mafkuraviy jihatlari"** deb nomlangan birinchi bobida yoshlarni sog'lom turmush va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining ta'siri, Sharq mutafakkirlarining yoshlarni sog'lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid g'oyalarining mafkuraviy ahamiyati ochib berilgan. Muallifning fikricha, milliy g'oya va mafkurani mustahkamlash, yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirishda xalq og'zaki ijodi, jumladan, epik dostonlar, betakror axloqiy va ma'naviy meros sifatida muhim o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi har bir millatning ma'naviy-mafkuraviy qudratini, hayot tarzi, urf-

odati, an'ana va qadriyatlarini o'z ichiga olgan bebaho xazina hisoblanadi. U insonni nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi adabiy meros sifatida, balki tarbiyaviy va mafkuraviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan ijtimoiy institut sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi, ayniqsa dostonchilik an'analari yosh avlod ongida sog'lom turmush tarzi, jismoniy va ma'naviy komillik, Vatanga muhabbat, xalq va millat taqdiri uchun kurashish, adolat va mardlik singari hayotiy g'oyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, "Alpomish" dostonida bosh qahramon Alpomish nafaqat jismoniy baquvvat va kuchli obraz sifatida, balki vatanparvar, axloqiy pok, oilaga va xalqiga sodiq inson sifatida tasvirlanadi. "Uning nafaqat dushmanga qarshi jasoratli kurashi, balki onasiga, yoriga va Vatanga bo'lgan muhabbati yoshlar ongida milliy iftixor, fidokorlik va sog'lom turmush sari intilish tuyg'usini shakllantiradi".⁵⁷ "Go'ro'g'li" dostonidagi qahramonlar ham millatning sha'ni va obro'si yo'lida kurashadigan, o'z hayotini xalq ravnaqiga bag'ishlagan shaxslardir. Bu dostonida Vatanga bo'lgan sadoqat, adolat va erkinlik uchun olib borilgan kurash asosiy mafkuraviy g'oya sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. "Go'ro'g'lining harakatlari, axloqiy pozitsiyasi, umummilliy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishi yoshlar uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi".⁵⁸ To'maris haqidagi rivoyat va dostonlar ham tarixiy-genderlik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. To'maris obrazi jasorat, aql-zakovat va Vatanga sadoqat ramzi sifatida zamonaviy qizlar va ayollar uchun ruhlantiruvchi timsol hisoblanadi. Uning jangga boshchilik qilishi, o'g'li uchun emas, xalq uchun dushmanga qarshilik ko'rsatishi, zo'ravonlikka qarshi turishi uchinchi ming yillikdagi global xatarlar davrida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash uchun muhim axborot manbaidir. "Shiroq" dostoni milliy qadriyatlar, erkinlik va hurlik g'oyalarning epik ifodasi sifatida yosh avlod ongida hurlik, yurtga sadoqat, jasorat va mafkuraviy immunitetni shakllantirishda kuchli ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Shiroq jonkuyar vatandosh, sodiq farzand va jasur jangchi timsolida namoyon bo'ladi. Uning jasorati eng avvalo vujudiy vatanparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgan. U Modiyalar yurtiga yolg'iz kirib, o'zini o'limga mahkumligini oldindan bilib, dushmanlarni yo'ldan ozdirib, butun Vatanni saqlab qolgan. Bu voqea nafaqat afsonaviy, balki tarixiy ruhdagi obraz sifatida talqin qilinadi. Hozirgi davrda uning jasorati Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston hududlarida tarqalgan turkiy xalqlar o'rtasida vatanparvar qahramon sifatida e'zozlanadi. Muallif fikricha, Shiroq obrazi zamonaviy mafkuraviy tarbiya jarayonlarida simvolik-mafkuraviy texnologiya sifatida xizmat qilishi mumkin. Uning shaxsiy fidoyiligi, yurtni sevishi, mustaqillik yo'lidagi fidokorligi yoshlar qalbida mas'uliyat tuyg'usi, Vatanga daxldorlik hissini kuchaytiradi. Bu ma'noda Shiroq obrazi ta'lim muassasalarida, maktab va universitetlarda vatanparvarlik darslarida muloqot mavzusi, mafkuraviy tadbirlarda qahramonlik namunasi, axborot vositalarida jangovar ruhni shakllantiruvchi foydali tarbiyaviy resurs sifatida qo'llanilishi mumkin. Zamonaviy axborot maydonida yoshlar turli mafkuraviy xurujlar ta'sirida ijtimoiy zaiflikka uchrashi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Shiroq kabi obrazlarning hayotini o'rganish yoshlarning mafkuraviy

⁵⁷ "Alpomish" dostoni. O'zMETda qayta nashr qilingan. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2003.

⁵⁸ Go'ro'g'li. O'zbek xalq dostonlari. – T.: Adabiyot va san'at, 1987.

immunitetini shakllantirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi, uning obrazi faqat tarixiy emas, balki mafkuraviy texnologiya sifatida ham muhimdir. U zamonaviy yoshlar ongida Vatan uchun jon fido qilishga tayyorlik, haqiqat uchun kurashish, Vatan xavfsizligiga shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otishda xizmat qiladi. “Shiroq” dostoni turkiy xalqlar tarixidagi vatanparvarlikning yuksak namunasi. Uning obrazi orqali yoshlarga mafkuraviy va axloqiy tarbiya berish nafaqat ehtiyoj, balki strategiya sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning jasorati, fidoyiligi va milliy qadriyatlarga sadoqati asosida ustuvor mafkurani shakllantirish, milliy g‘oyani mustahkamlash, axborot xurujlariga qarshi immunitet yaratish mumkin.

Demak, xalq og‘zaki ijodi yoshlarda milliy qadriyatlarga muhabbat, jismoniy va ma’naviy sog‘lom hayot tarzi, vatanparvarlik va fidoyilikni shakllantirishda mafkuraviy targ‘ibot texnologiyasi vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyada Sharq mutafakkirlari, jumladan, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Atoiy, Bahouddin Naqshbandiy asarlarida ilgari surilgan inson kamoloti, jamiyat ravnaqi va davlat mustahkamligi uchun yosh avlod tarbiyasiga oid g‘oyalarning hozirgi davrda milliy ma’naviy yuksalishda muhim targ‘ibot texnologiyasi sifatidagi ahamiyati, bu g‘oyalarning yoshlar tarbiyasini nafaqat axloqiy, balki sog‘lom turmush va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish vositasi ekanligi asoslangan.

Muallif fikricha, Abu Nasr Farobiyning “Fozil shahar aholisi to‘g‘risida”gi asarida inson baxtiga erishish uchun uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomligi birinchi shart sifatida belgilangan. Uning ta’limotida jamiyat muvozanati uchun har bir inson, ayniqsa yoshlar sog‘lom aql, sog‘lom tana va sog‘lom muhitda tarbiya topishi kerak, degan fikr ilgari surilgan⁵⁹.

Islom rivoji va ilm-fanning yuksalish davri bo‘lgan O‘rta asrlarda Ibn Sino va Kaykovus kabi mutafakkirlar inson hayotida sog‘lom turmush tarzi, ma’naviy poklik va Vatanga sadoqat masalalariga jiddiy e’tibor qaratganlar. Ularning asarlarida sog‘lom turmush va vatanparvarlik inson kamolotining ajralmas qismi sifatida talqin qilingan.

Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida sog‘lom hayot tarziga qat’iy amal qilish insonning jismoniy va ruhiy barqarorligining asosi deb ta’kidlangan. Uning fikricha: “Tana tozaligi ruh pokligiga yo‘ldir, sog‘lom ovqatlanish, mehnat va dam olish rejimi, nafsni tiyish va axloqiy yuksalish insonni yuksak shaxs darajasiga olib chiqadi”⁶⁰. Shuningdek, Ibn Sino insonning jamiyat va Vatan oldidagi burchlarini anglashga, fidoyilik va adolatparvarlikni shakllantirishga da’vat etgan «Inson tabiatdan faqat lazzat izlash uchun emas, balki jamiyatga foyda keltirish uchun yaratilgan»⁶¹. Bu g‘oyalar zamonaviy yoshlarning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega.

Kaykovus tomonidan yozilgan «Qobusnoma» asari ma’naviy-axloqiy va amaliy hayot qoidalari to‘plami bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalashda ahamiyat kasb etadi. Asarda sog‘lom turmush tarzi va Vatanga sadoqat tuyg‘ulari turli hayotiy

⁵⁹ Abu Nasr Farobiy. Fozil shahar aholisi to‘g‘risida. – Toshkent: Fan, 1993. – 45-b.

⁶⁰ Ibn Sino. Tib qonunlari. I jild. – Toshkent: Fan, 1980. – 82-b.

⁶¹ Ibn Sino. Donishnoma. – Dushanbe, 1992.

misollar bilan bog‘liq holda bayon etilgan. U “O‘g‘lim, tanada sog‘lik bo‘lmasa, aql ham noto‘g‘ri ishlaydi. Sog‘lom bo‘l, toza ovqatlan, toza fikrla”⁶² deb ta’kidlagan. Shu bilan birga, Kaykovus Vatanga sadoqat, xalqqa xizmat qilish, shijoat va jasorat kabi fazilatlarini har bir yigit uchun tabiiy burch deb bilgan va «Agar Vatan senga mehr bersa, sen unga taning bilan xizmat qil!»⁶³ deb ta’kidlagan.

Muallifning fikricha, hozirgi davrda Ibn Sino va Kaykovusning sog‘lom hayot va vatanparvarlikka oid g‘oyalari mamlakatimizda yoshlarni tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yoshlar biz uchun strategik resurs. Ular faqat bilimli emas, sog‘lom, vatanparvar, qat’iyatli va intizomli bo‘lishi shart”⁶⁴. Shunday ekan, zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida Ibn Sinoning ilm va axloq uyg‘unligiga oid fikrlari, Kaykovusning hayot maktabiga aylangan nasihatlarini har bir pedagog, mafkuraviy targ‘ibotchi va ota-ona uchun yo‘l-yo‘riq vazifasini bajarmog‘i zarur. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» asarida yoshlar tarbiyasida Vatanga muhabbat, millatga sadoqat, jismoniy va ruhiy poklik kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratilgan. Uning fikricha, sog‘lom jamiyat bu, avvalo, sog‘lom shaxslar jamlanmasidir, fidoyilik, adolat va hurfiylik muhim axloqiy asoslardan sanaladi.⁶⁵ Bahovaddin Naqshband ta’limotlarida ham insonning tashqi va ichki pokligi, jismoniy harakat va mehnatga mehr, ruhiy tarovatiga e’tibor kabi g‘oyalar tarbiyaviy model sifatida ilgari surilgan. Uning “Dil ba yor, dast ba kor”⁶⁶ shiori bugungi kunda ham ma’naviy-axloqiy kamolotning muhim mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, islom mutafakkirlari ta’limotida ham jismoniy tarbiya, poklik va Vatanni himoya qilish masalalari shariat doirasida jamoaviy burch sifatida tushuntiriladi. Bu g‘oyalar zamonaviy mafkuraviy faoliyatda ham o‘zini to‘la-to‘kis tasdiqlamoqda. Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari yoshlar ongida sog‘lom hayot va Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda nafaqat tarixiy, balki ilmiy-mafkuraviy qiymatga egadir. Ular o‘z asarlari orqali insonni nafaqat dunyoviy, balki ma’naviy yuksalish sari yetaklaydi. Hozirgi davrda «barkamol avlod» tarbiyasi, milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari kabi mafkuraviy yo‘nalishlar ana shu meroslar ruhi ta’sirida ma’naviy yuksalishi kerak. Bu esa yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va vatanparvar shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda davlat va nodavlat tashkilotlarining roli”** deb nomlangan ikkinchi bobida umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o‘rni ochib berilgan. Muallif fikricha, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalashda asosiy platforma

⁶² Kaykovus. Qobusnoma. 3-bob. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.

⁶³ Kaykovus. Qobusnoma. 12-bob. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.

⁶⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar forumidagi nutq. Toshkent: O‘zbekiston, 2021-y. 20-dekabr.

⁶⁵ Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2002.

